

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva

No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar835

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi838

M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova

Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari.....841

S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov

Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition847

M.T.Abdullayeva, M.Nazarov

Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati850

M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova

Soil pollution by waste and measures to it prevent854

D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova

Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari857

D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova

Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi862

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar868

ILMIY AXBOROT

Z.V.Alimova, M.A.Usmanova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar va forsiy izofa haqida871

X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova

Isajon Sultonning "Ozod" romanida intertekstuallik876

M.A.Jo'rayeva

Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni.....880

A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova

Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi884

I.I.Rustamova, D.A.Abduvahobova

Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari887

A.G.Sabirdinov

Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida890

A.A.Qayumov

Hastalangan ruhiyat tasviri894

R.M.Umurzakov

Avtobiografik qissalarda bola obrazi899

Q.V.Yo'ldiyev, A.Charos

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida ironiyaning o'rni903

Z.V.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq leksemalar xususida907

G.A.Ikromova

Dramalar tilida antroponimlarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida).....913

I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva

Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar918

N.A.Abduvaliyeva

Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi922

A.R.Dadajonov

Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi.....927

D.R.Teshaboyev

Havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishqlik930

I.T.Axmadjonov, A.R.Dadajonov

Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari936



UO'K: 811.512.133'42-047.37

**DRAMALAR TILIDA ANTROPONIMLARNING QO'LLANILISHI (SHAROF BOSHBEKOV
DRAMALARI MISOLIDA)****УПОТРЕБЛЕНИЕ АНТРОПОНИМОВ В ЯЗЫКЕ ДРАМЫ (НА ПРИМЕРЕ ДРАМ
ШАРАФА БОШБЕКОВА)****THE USE OF ANTHROPONYMS IN THE LANGUAGE OF DRAMAS (IN THE EXAMPLE
OF SHARAF BOSHBEKOV'S DRAMAS)****Ikromova Gulhida Axmadillo qizi** 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada xalq milliy tafakkuri, turmush tarzi, orzu va istaklarining tarjimoni hisoblangan antroponimlarning o'ziga xos lisoniy xususiyatlari, badiiy matnlarda qo'llanilgan antroponimlarning lingvistik hamda lingvoemotsional xususiyatlarini o'rganishga doir bir qancha tadqiqotlarning o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi masalalari haqida so'z yuritilgan. Xususan, antroponimlarning badiiy adabiyot va folklor asarlari tilida o'ziga xos badiiy-uslubiy vazifa bajarishi onomastika sohasi bilan bog'liq ayrim ishlarda taqqid etilgani ta'kidlab o'tilgan. Sharof Boshbekov dramalarida qo'llanilgan Qo'chqor, Qumri, Alomat, Bozorvoy, Shoir, Olim Baratovich singari antroponimlarning allyuziv nom sifatida matnni shakllantirish hamda intertekstuallikni ta'minlash, komik effekt hosil qilish hamda salbiy yoki ijobiy bahoni ekspressiv ifodalash kabi funksional-ekspressiv xususiyatlari aniqlangan. Muallif dramalari matnida "so'zlovchi" nomlar o'z semantikasi bilan badiiy asar qahramonining turli xususiyatlariga ishora qilib kelishi, shu bilan birga, dramalarda qo'llanilgan "so'zlovchi" nomlar ekspressivlik va emotsionallik mohiyatini anglash, shuningdek, ijodkorning ijobiy yoki salbiy subyektiv munosabatini ifodalash hamda komik effekt hosil qilish kabi vazifalarini bajarishi misollar yordamida tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются специфические языковые особенности антропонимов, которые считаются интерпретаторами национальной мысли, образа жизни, мечтаний и желаний народа, а также развитие ряда направлений, связанных с изучением и развитием языковой и лингвоэмоциональной специфики. вопросы антропонимов, используемых в художественных текстах. . отмечено, что исполнение антропонимов в языке художественных произведений и фольклора изучалось в ряде работ, относящихся к области ономастики. Выявлены функционально-экспрессивные особенности, такие как резкое выражение или экспрессивное выражение положительной оценки. В тексте авторских драм "красноречивые" имена согласуются с их семантикой, отсылая к различным характеристикам героя художественного произведения, в то же время "красноречивые" имена, используемые в драмах, означают выразительность и эмоциональность, или понимание, творчество и честность. На примерах проанализированы средства выражения субъективного отношения и создания комического эффекта.

Abstract

In the article, the specific linguistic features of the anthroponyms, which are considered to be the interpreters of the people's national thought, lifestyle, dreams and desires, and the development of several areas related to the study and development of linguistic and lingu-emotional specific issues of the anthroponyms used in artistic texts. . it was noted that the performance of anthroponyms in the language of works of fiction and folklore has been studied in some works related to the field of onomastics. Functional-expressive features such as sharp by or expressive expression of positive evaluation have been determined. In the text of the author's dramas, the "eloquent" names agree with their semantics, referring to various characteristics of the hero of the work of art, at the same time, the "eloquent" names used in the dramas mean expressiveness and emotionality, or understanding, creativity and integrity. The means of expressing subjective attitude and creating a comic effect were analyzed using examples.

Kalit so'zlar: drama, onomastika, antroponim, "so'zlovchi nom", tagma'no, emotsional-ekspressivlik, apellyativ vazifa, allyuziv nom, kinoyaviy tagma'no.

Ключевые слова: драматургия, ономастика, антропоним, "говорящее имя", коннотация, эмоционально-выразительность, апеллятивная задача, аллюзивное имя, иронический оттенок.

Key words: drama, onomastics, anthroponym, "speaking name", connotation, emotional-expressiveness, appellative task, allusive name, ironic connotation.

KIRISH

Tilshunos olim E.Begmatov to'g'ri ta'kidlaganidek, antroponimlar – onomastikaning eng yirik guruhini tashkil qiluvchi lisoniy birliklar bo'lib, biror tildagi antroponimlar majmui antroponimiya (xuddi toponomiya, zoonomiya kabi) deb yuritiladi [1, 11].

Ma'lumki, kishi ismlari milliy tafakkurning, xalq turmush tarzining, orzu va istaklarining tarjimoni bo'lib, g'oyat rang-barangdir. Bu so'zlar nomlash vazifasidan tashqari, ism sohibiga munosabatni ham o'zida aks ettiradi. Kishi ismlarining badiiy adabiyotdagi qo'llanishi ham faqatgina qahramonlarni nomlashga emas, balki ijodkorning turli badiiy maqsadlarini ifodalashga xizmat qiladi [2, 22]. Ijodkorning badiiy niyati va asar qatlamlaridagi yashirin ma'nolar boshqa til birliklarida bo'lgani kabi, antroponimlarning badiiy matnda qo'llanilishi bilan yanada teranlashadi. Tilshunos olim A.Nurmonov mazkur hodisaga munosabat bildirar ekan, "badiiy adabiyotda qahramonning xarakteriga mos ism tanlashga harakat qilinadi. Ismning tilsimini ochish, ma'nolarini belgilab berish katta amaliy ahamiyatga ega" [3, 286], deya ta'kidlaydi. Tilshunoslikda badiiy matnlarda ayni shu maqsadda qo'llanilgan antroponimlarga nisbatan "tagmatnli antroponim" termini ishlatiladi [4,30]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'kidlash kerakki, o'zbek tilshunosligida badiiy matnlarda qo'llanilgan antroponimlarning lingvistik hamda lingvoemotsional xususiyatlarini o'rganishga doir bir qancha tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular orasida D.Andaniyazovning "Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi" [5, 22] mavzusidagi dissertatsiyasi ahamiyatli bo'lib, tadqiqotda onomastikaning kattagina qismini tashkil qiluvchi antroponimlarning lingvopoetik xususiyatlari tadqiq etilgan hamda mazkur birliklarning asar badiiyatini ochib berishdagi o'ziga xos vazifasi to'g'ri ta'kidlangan. Sh.Abdurahmonovning o'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar haqidagi nomzodlik dissertatsiyasi [6]da esa antroponimlar badiiy matnda kulgi hosil qiluvchi birliklar sifatida tahlilga tortilgan. M.Yo'ldoshev badiiy matnning lingvopoetik tadqiqiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida bir qator yozuvchilar asarlaridagi ismlarga diqqat qaratib, badiiy matnda maqsadli qo'llangan antroponimlar yozuvchi kinoyasini aniq ifodalashi hamda ularda poetik jihatdan aktuallashuv kuchli ekanligini to'g'ri ta'kidlaydi [7].

NATIJA VA MUHOKAMA

Ma'lumki, Sharof Boshbekov dramalari qahramonlarining tashqi ko'rinishi, xatti-harakati, qalb kechinmasi, so'zlashish ohangida uning qaysi kasbga aloqador ekanligi va ma'naviy-axloqiy qiyofasini katta mahorat bilan tasvirlab bergan. Dramaturg personajlariga ism berishning o'zidayoq ana shu sifatlarga ishora qilib qo'ygan. Birgina "Temir xotin": dramasida qo'llanilgan antroponimlar orqali drama personajlarining xarakter-xususiyatlari, ma'naviy-axloqiy sifatlari va ularning kasb-kori bilan bog'liq tushunchalar oydinlashadi.

Onomastik birliklarning lingvopoetik qimmatini ularning "so'zlovchi" nom vazifasida kelganida yanada yaqqol ko'rinadi. Ta'kidlash kerakki, onomapoetika doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda "so'zlovchi" nomlarga alohida e'tibor berilgan bo'lib, "so'zlovchi" nomlar mohiyati E.B.Magazanik [8, 33] tadqiqotlarida keng yoritilgan. Bu terminni olim matn tagma'nosi bilan bog'liq ravishda qo'llanuvchi, ijodkorning badiiy niyatini yoritishga xizmat qiluvchi antroponim va toponimlarga nisbatan ishlatadi.

Sharof Boshbekov dramalarida "so'zlovchi" nomlar antroponimlarning appelyativ asosi orqali personaj xarakteriga ishora qilish vazifasini bajargan. Masalan, "Temir xotin" tragikomediyasi personaji Qo'chqorni ushbu ism bilan atashda ijodkor ma'lum maqsadni ko'zlagan.

Ismshunos olim E.Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi" risolasida Qo'chqor antroponimiga shunday ta'rif beriladi: "Qo'chqor (o'z) – peshonasi do'ng yoki moyagi kattaroq bo'lib tug'ilgan bola yoxud sog' ulg'ayib, qo'chqordek kuchli yigit bo'lsin. Shakllari: Qo'chqorбек, Qo'chqorboy" [9, 558]. "Temir xotin" dramasida mazkur antroponim personaj ma'naviy-axloqiy sifatlarini ifodalash bilan birga, drama matnining emotsional-ekspressivligini ta'minlashga xizmat qilgan. Masalan:

Q o' ch q o r. (Tamshanib.) Qo'ldan berganga qush to'ymas... O'tir mundoq. (Qumri itoatkorlik bilan o'tiradi.) Endi bir boshdan gapirib ber: kim nima dedi, nima qildi... Yo'q, nima qilgani kerak emas, qilgan boshidan qolsin! Kim nima dedi?

Q u m r i. "Qo'chqormas, ho'kiz ekansan..."

ILMIY AXBOROT

Q o'ch q o r. O'chir ovozingni! (Tipirchilab.) Hozir, lekin...

Q u m r i. Voy, Muhiddin aka shunaqa dedilar-da, menga nega o'shqirasiz?

(Sh. Boshbekov. "Temir xotin", 165-bet)

Dramada Qo'chqor obrazi sodda to'pori, hazilkash, beg'am qishloq odami sifatida tasvirlangan. Lekin uning bir salbiy odati bor. U yoshi qirqqa chiqsa ham, ichkilik ichish odatini tashlamagan. Parchada drama qahramoni Qo'chqorning ichkilikka ruju qo'ygani, ichkilik ichgan vaqtda o'zini tamoman yo'qotib qo'yishi, xotini va bolalarini o'ylamay, janjal ko'tarishi kabi salbiy sifatlarini bo'rttirib tasvirlash maqsadida Muhiddin aka tilidan aytilgan "Qo'chqormas, ho'kiz ekansan" jumlasini orqali muallif "Qo'chqor" antroponimining apellyativ vazifasi orqali personaj xarakteriga ishora qilgan hamda ushbu personajga bo'lgan salbiy munosabatini yashirin tarzda ifodalagan.

Antroponimlarni lingvoemotsional nuqtai nazardan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, badiiy matnda ulardan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi: 1) allyuziv nom sifatida matnni shakllantirish hamda intertekstuallikni ta'minlash; 2) komik effekt hosil qilish; 3) salbiy yoki ijobiy bahoni ekspressiv ifodalash; 4) kuchli his-hayajonni ifodalash; 5) ritorik figura tarkibida kelib tasvirni tiniqlashtirish; 6) turli ma'nodagi murojaatni ifodalash [2, 60].

Ayni maqsadlarda qo'llanilgan antroponimlarni Sharof Boshbekov dramalarida ko'p o'rinlarda uchratishimiz mumkin. Ma'lumki, yozuvchining badiiy maqsadini aniq ifodalashda antroponimlarning allyuziyalik vazifasi muhim ahamiyatga ega. "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"da esa allyuziyaga shunday ta'rif berilgan: "Allyuziya (lot. allusion – "ishora", "hazil") – barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul. Mohiyatan sharq mumtoz she'riyatida keng qo'llanilgan talmeh san'atiga yaqin keladi. Farqli jihati shuki, talmehda ko'proq mashhur tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinsa, allyuziyada ijodkor o'z zamonasidagi siyosiy, maishiy yoki badiiy faktlarga ishora qilishi ham mumkin, ya'ni allyuziyada ishora obyektining doirasi kengroq [10, 27]" bo'ladi. "Tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diniy, mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma'lum bo'lgan narsalarga ishora qilish yoki ulardagi turg'un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish" usuliga allyuziya deyiladi [11, 124]. Masalan:

Q u m r i (shosha-pisha arqonni yecha boshlaydi). Odamlardayam insof qolmabdi, o'lib qoladiyam deyishmaydi. (Yig'lamsirab.) Bunaqaligini bilganimda o'zim yechib ketardim. Voy, sho'rginam qursin-a!.. Belingiz ham qotib qolgandir, dadasi?

Q o'ch q o r. Qotmay-chi! Uch kundai beri Iso payg'ambarga o'xshab turibman!

(Sh. Boshbekov. "Temir xotin", 203-bet)

Misolda Iso antroponimi allyuziv nom sifatida matnda intertekstuallikni ta'minlashga xizmat qilgan. Muallif tomoshabin va kitobxonning Iso payg'ambar ismi bilan bog'liq tasavvuridan mohirlik bilan foydalangan. Nasroniylik dini bilan bog'liq rivoyatlarda va g'arb diniy-badiiy adabiyotlarida ko'p tilga olinadigan Iso payg'ambar va uning xochga qoqilishi bilan bog'liq rivoyatga ishora qilish orqali drama matnining espressivligi ortgan.

Muallif dramalarda antroponimlardan komik vaziyat hosil qilishda ham foydalanadi. Masalan:

O l i m j o n. Bu kishi – Qo'chqor aka.

Q o'ch q o r (arang jilmayib). Shundoq, shundoq...

A l o m a t. Qo'chqor aka.

Q o'ch q o r. Labbay?..

A l o m a t. Ko'nglingizga kelmasin-u, nega endi sizga hayvonning nomini qo'yishgan, qo'chqor deb?

Q o'ch q o r. Iye?..

A l o m a t. Qo'chqor – qo'ying erkagi-ku.

Q o'ch q o r. Haligi... nima deydi... Ha endi, biz odamning erkagimiz-da, Alomatxon...

A l o m a t. Bizga nima xizmat bor, odamning erkagi?

(Sh. Boshbekov. "Temir xotin", 174-bet)

Parchada *qo'chqor* so'zi vositasida so'z o'yini hosil qilingan bo'lib, muallif ushbu leksema ma'nosi orqali komik bo'yoqni shakllantira olgan. Aromat nutqidagi *qo'chqor* qo'yning erkagi ekanligi haqidagi birinchi jumla kuchli kulgi holatini shakllantirgan bo'lsa, *Qo'chqorning* odamning erkagi ekanligi haqidagi javobi ayni holatni yanada bo'rttirib ifodalashga xizmat qilgan.

Sharof Boshbekov dramalarida antroponimlar personajning kuchli his-hayajonini ifodalash uchun ham xizmat qilgan bo'lib, bu orqali dramaning emotsional-ekspressivligi ortganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan:

Q o' ch q o r (hayratdan o'g'zi ochilib). O-o-olimtoy, buyam haligi magnitafonday gap ekan-da?!

(Sh. Boshbekov. "Temir xotin", 173-bet)

Parchada *Olimtoy* antroponimi personajning kuchli his-hayajonini ifodalash uchun qo'llangan bo'lib, antroponim tarkibidagi "o" unlisining qahramon nutqida cho'zib talaffuz qilinishi kuchli his-hayajon bilan birgalikda xayratlanish ma'nosining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Badiiy asarda qo'llanilgan ismlar ichida alohida uslubiy maqsad yuklanganlari ham bo'ladiki, ular yozuvchining g'oyaviy-badiiy niyatini aniqlashga yordam beradi. Sharof Boshbekov dramalarida ham kinoyaviy tagma'no ifodalovchi antroponimlar yozuvchining "Eshik qoqqan kim bo'ldi?" dramasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur dramada Olim va Shoir ismli qahramonlarni muallif qo'shtirnoq ichidagi "olim" va "shoir" sifatida tasvirlaydi. Dramaning birinchi sahnasidayoq Shoir personajiga muallif quyidagicha ta'rif beradi: "Shoir – ismini oqlash uchungina she'r yozadi. Mabodo uni O'rog'voy deb atashganlarida, so'zsiz, dehqon bo'lardi". Ana shu ta'rifning o'ziyoq, muallifning drama personajiga bo'lgan salbiy munosabatini yashirin tarzda ifodalash uchun kinoyaviy tagma'no ifodalovchi antroponimlardan foydalanganini ko'rsatadi. Masalan:

N a f i s a. Juda to'g'ri – o'tirib! Vaholanki, o'sha ilmiy ishlaringiz-u dissertatsiyalaringizni yozish uchun "o'tirish" emas, dunyo kezish kerak edi, tuproq changallab, chang yutish kerak edi! Bularni sizning o'ringizga Rahmatilla akam qildilar. Siz esa o'zingiz aytganingizdek, o'tirdingiz, ha, o'tirdingiz, Olimjon aka! ...Bir tasavvur qiling-a: Rahmatilla akamning aniq faktlari, har xil raqamlari-yu taxminlari bo'lmaganda holingiz nima kechardi?... Rahmatilla akam ne azoblarda qay go'rlardandir qop-qop suyak topib keladilar. Bu kishim bo'lsa, kabinetlarida o'tirib olib, dissertatsiya yozadilar. Qarabsizki, Olim Baratovich – doktor, Rahmatilla – o'sha-o'sha yugurdak.

(Sh. Boshbekov. "Eshik qoqqan kim bo'ldi?", 152-bet)

Yuqoridagi parcha orqali esa Olim Baratovichning aslida haqiqiy olim emasligini, do'sti Rahmatillaning yordami, tinimsiz izlanishlari va mashaqqatli mehnati evaziga ayni darajaga erishganini bilib olish mumkin. Muallif bejizga mazkur qahramonlarni ushbu ismlar bilan nomlamagan. Mazkur antroponimlar orqali kitobxon yoki tomoshabinda ushbu personajlarga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi. Bu orqali esa badiiy asar ta'sirchanligi yanada ortadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Sharof Boshbekov dramalaridagi onomastik birliklarning lingvopoetik qimmatini ularning "so'zlovchi" nom vazifasida kelganda yanada yaqqolroq ko'rinadi. Muallif dramalari matnida "so'zlovchi" nomlar o'z semantikasi bilan badiiy asar qahramonining turli xususiyatlariga ishora qilib keladi. Shu bilan birgalikda, dramalarda qo'llanilgan "so'zlovchi" nomlar ekspressivlik va emotsionallik mohiyatini anglash, shuningdek, ijodkorning ijobiy yoki salbiy subyektiv munosabatini ifodalash hamda komik effekt hosil qilish vazifalarini bajaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. (2013). –Тошкент: Фан, – Б. 11.
2. Анданиязова Д. (2017). Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопозитикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. –Тошкент.– Б. 22.
3. Нурмонов А. (2012). Танланган асарлар. III жилд. –Тошкент: Академнашр, – Б. 286.
4. Зиннатуллина Г. (2012). Функции антропонимов в произведениях А.Еники // Филология и культура. Philology and Culture. - М., - №1 - С.30.
5. Анданиязова Д. (2017). Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопозитикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. –Тошкент. – Б. 22.
6. Абдурахмонов Ш. (1997). Ўзбек бадий нутқида кулгу қўзғатувчи лисоний воситалар. Фил. фан. ном-ди диссертацияси. –Тошкент.

ILMIY AXBOROT

7. Йўлдашев М. (2009). Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Фил. фан. д-ри... диссертацияси. – Тошкент. 2009
8. Магазаник Э.Б. (1978). Ономапоэтика или “говорящие имена” в русской литературе. – Тошкент: Фан, – С. 33.
9. Бегматов Э. (2013). Ўзбек тили антропонимикаси. –Тошкент: Фан, – Б. 558.
10. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. (2013). Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, – Б. 27.
11. Йўлдошев М. (2008). Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, – Б. 124.